



SHARQSHUNOSIK  
ВОСТОКОВЕДЕНИЕ  
ORIENTAL STUDIES

4

2023

ILMIY JURNAL  
ISSN 2181-8096

**MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS****ADABIYOTSHUNOSLIK // ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ // LITERATURE***Umarova S.* Xorazm devonlarida qasida .....4**TILSHUNOSLIK // ЯЗЫКОЗНАНИЕ // LINGUISTICS***Berdiyev U.* Xitoy tilidagi paremiologik birliklarda “Odam” konseptining talqini ..... 14*Hakimova B.* Zamonaviy tilshunoslikda konsept masalasi va koreys lingvokulturologiyasida “ayol” konseptining ifodalanishi .....20*Muhibova U.* Hindistonda milliy ozodlik uchun kurash va adabiy xayot .....28*Davlatov Z.* Tugallik va oniylik semali ko‘makchi fe’llarning leksik-semantik xossalari (gitmek, vermek) xususida .....36**TARJIMASHUNOSLIK // ПЕРЕВОДОВЕДЕНИЕ // STUDY OF TRANSLATION***To‘raqulova D.* A.Qahhor hikoyalarining koreyscha tarjimasida kiyim-kechak nomlarining berilishi xususida .....41**MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK // ИСТОЧНИКОВЕДЕНИЕ И ИСТОРИОГРАФИЯ // SOURCE STUDIES AND HISTORIOGRAPHY***Tag‘bayev A. B.* Karmisheva asarlarida O‘zbekistonning janubiy hududlarida yashovchi tojiklar etnografiyasi yoritilishi .....49*Lafasov U.* O‘kuzbeklar jahon ilmiy tamaddunining asoschilari ..... 55*Shokirova H.* Alisher navoiy “xamsa”sining XIX asrda kitobat qilingan ba’zi qo‘lyozma nusxalari .....62**XALQARO MUNOSABATLAR VA SIYOSAT // МЕЖДУНАРОДНЫЕ ОТНОШЕНИЯ И ПОЛИТИКА // INTERNATIONAL RELATIONS AND POLITICS***Abdullayeva R.* O‘zbekiston va Ozarbayjon respublikalarining transport tranzit sohasidagi hamkorligi .....69*Gafarov I.* Janubiy osiyo mintaqasida AQSH tashqi siyosatining genezisi (1947-2022yy.) .....77*Ravshanov S.* Qora dengiz va Ukarainaning Turkiya tashqi siyosatidagi ahamiyati .....84*Saidov J.* Rossiya va Xitoy ta’sirida Koreya respublikasining markaziy osiyodagi diplomatiya siyosati .....90*Imomova Y.* AQSh tashqi siyosatidagi mafkuraviy muvozanat: izolyatsionizm va internatsionalizm .....98*Achilov A.* Afg‘onistondagi etnik-siyosiy jarayonlarning barqarorlikka ta’siri: tarixiy va qiyosiy tahlil .....105*Saliyeva M.* Kommunikatsiyaning siyosiy jarayondagi ahamiyati .....111**FALSAFA // ФИЛОСОФИЯ // PHILOSOPHY***Amonov M.* Tasavvuf ta’limotiga oid manbalar tahlili (Zarafshon vohasi XV-XIX asrlar) .....118



## JANUBIY OSIYO MINTAQASIDA AQSH TASHQI SIYOSATINING GENEZISI (1947-2022yy.)

**Gafarov Islomxon**

Yetakchi ilmiy xodim, Istiqbolli xalqaro tadqiqotlar instituti

ORCID ID: 0009-0002-8031-5151

**Annotatsiya.** AQSh tashqi siyosati Janubiy Osiyo mintaqasida o'zgaruvchanligi va dinamik xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Mazkur maqolaning bosh maqsadi AQShning ushbu mintaqadagi konstruktivist tashqi siyosiy jihatlarini aniqlashdan iboratdir. Bunda tarixiy, qiyosiy-siyosiy, induksiya va deduksiya ilmiy usullaridan foydalanilgan. Maqolada Sovuq urushi davridan to bugungi kunga qadar AQSh tashqi siyosati Janubiy Osiyoda ko'tarilish va tushishlar, bog'liqlik va uzoqlashishdan iborat bo'lganligi, bundan tashqari, tashqi siyosat vektori goh Pokistonga, goh Hindistonga qaratilganligi hamda bugungi kunda aloqalar asosan Hindiston tomon yo'nalganligi xulosa qilingan.

Maqola o'z ichiga AQSh tashqi siyosatining Janubiy Osiyo mintaqasidagi asosiy etti davrini oladi. Xususan, 1947-1965-yillarda AQShning mintaqadagi e'tibori Pokistonga qaratilgan bo'lsa, 1965-1979-yillarda Vetnam urushi tufayli mintaqadan uzoqlashish ro'y beradi. 1979-1989-yillarda bo'lib o'tgan SSSRning Afg'onistondagi urushi yana Pokistonning ahamiyatini AQSH tashqi siyosatida kuchaytiradi. 1989-1998-yillarda AQSH global gегemoniyaga intilganligi sababli ham Hindiston, ham Pokiston bilan alohida-alohida tashqi siyosat olib bora boshlaydi. 1998-2001-yillarda Hindiston va Pokiston yadro qurollarining sinovini o'tkazganligi sababli AQShning sanksiyalari ostiga tushadi. Binobarin 2001-yilda Afg'onistonda boshlangan terrorizmga qarshi urush (War on Terror) Pokistonning ustuvorligini AQSH tashqi siyosatida yana oshiradi. Bu 2021-yil AQSH o'z kuchlarini Afg'oniston olib chiqib ketkunga qadar davom etadi. Prezident Barak Obama davridan boshlab Hindistonning AQSh tashqi siyosatidagi o'rni keskin osha boshlaydi. D.Tramp davrida ushbu davlatga rasman "Asosiy mudofaa hamkori" maqomi beriladi.

Maqola konstruktivizm xalqaro munosabatlar nazariyasi rakursida ochib berilganligi bilan ajralib turib, u soha mutaxassislarining faoliyatida foydali bo'lishi mumkin.

**Kalit so'zlar:** Xalqaro munosabatlar, tashqi siyosat, AQSh, Janubiy Osiyo, Hindiston, Pokiston, Xitoy, konstruktivizm.

**Аннотация.** Внешняя политика США в регионе Южной Азии характеризуется изменчивостью и динамичностью. Основная цель данной статьи – выявить конструктивистские аспекты внешней политики США в этом регионе. В статье использовались исторический, сравнительно-политический, индукционный и дедуктивные научные методы. В работе приводятся такие выводы, что внешняя политика США в Южной Азии со времен Холодной войны до наших дней состояла из взлетов и падений, внешнеполитический вектор был направлен то в сторону Пакистана, то в сторону Индии, а на сегодняшний день отношения в основном направлены в сторону Индии.

В статье представлены семь основных периодов внешней политики США в регионе Южной Азии. В частности, в 1947-1965 гг. внимание США в регионе было приковано к Пакистану, а в 1965-1979 гг. в связи с вьетнамской войной отдалилось от региона. Война СССР в Афганистане, имевшая место в 1979-1989 гг., вновь усиливает значение Пакистана во внешней политике США. В 1989-1998 годах США начали проводить отдельную внешнюю политику как с Индией, так и с Пакистаном из-за стремления к глобальной гегемонии. В 1998-2001 годах Индия и Пакистан попали под санкции США из-за проведения ими испытаний ядерного оружия. Следовательно, война с терроризмом (War on Terror), начавшаяся в Афганистане в 2001 г., повышает приоритет Пакистана во внешней политике США. Это продолжалось до 2021 года, когда США вывели свои войска из Афганистана. Со времен президента Барака Обамы роль Индии во внешней политике США начинает резко возрастать. При Д. Трампе данной стране официально был присвоен статус «Основного оборонного партнера».

Статья отличается тем, что раскрывается с позиций теории международных отношений конструктивизма и может быть полезна в работе специалистов в данной области.

**Ключевые слова:** Международные отношения, внешняя политика, США, Южная Азия, Индия, Пакистан, Китай, конструктивизм.

**Abstract.** US foreign policy in the South Asian region is characterized by changeability and dynamism. The main purpose of this article is to reveal the constructivist aspects of US foreign policy in this region. The article used historical, comparative political, inductive and deductive scientific methods. The paper concludes that the US foreign policy in South Asia from the Cold War to the present day has consisted of ups and downs, the foreign policy vector has been directed either towards Pakistan or towards India, and today relations are mainly directed towards India.



*The article includes the main seven periods of US foreign policy in the South Asian region. In particular, in 1947-1965, the attention of the United States in the region was focused on Pakistan, and in 1965-1979, due to the Vietnam War, it moved away from the region. The war of the USSR in Afghanistan, which took place in 1979-1989, again strengthens the importance of Pakistan in the foreign policy of the United States. In 1989-1998, the United States began to pursue a separate foreign policy with both India and Pakistan due to its pursuit of global hegemony. In 1998-2001, India and Pakistan are subject to US sanctions due to their nuclear weapons tests. Consequently, the War on Terror, which began in Afghanistan in 2001, increases the priority of Pakistan in the foreign policy of the United States. This continued until 2021, when the United States withdrew its forces from Afghanistan. Since the time of President Barack Obama, the role of India in the foreign policy of the United States has increased dramatically. During the period of D.Trump, this country was officially given the status of "Major Defense Partner".*

*The article differs in that it is revealed from the standpoint of the theory of international relations of constructivism and can be useful in the work of specialists in this field.*

**Key words:** *International relations, foreign policy, USA, South Asia, India, Pakistan, China, constructivism.*

Amerika Qo'shma Shtatlarining tashqi siyosati konstruktivist jihatlariga egadir. Ushbu nazariyaga ko'ra, xalqaro munosabatlar material emas, balki ko'proq mafkuraviy, madaniy va ijtimoiy omillarga bog'liqdir. Undagi tartib va qoidalar aniq, to'liq, abadiy hamda o'zgaras emasdir. Ular ma'lum bir davr va makonda vaqtincha mavjuddir va muqim emasdir. Xalqaro munosabatlardagi qoidalar vaqtincha va moslashuvchidir. Ba'zi mutaxassislar konstruktivizmni nazariya emas, balki ko'proq siyosiy yondashuv deb atasa, ko'pchilik uni to'laqonli xalqaro munosabatlar nazariyasi deb ta'riflaydi. Konstruktivizm bu 90-yillar va 2000-yillarning boshida xalqaro munosabatlar nazariyalari ichida ta'sir kuchi eng ko'p bo'lgan maktabdir. Sovuq urush natijasida AQSHda ijtimoiy harakatlar avj olib, ziddiyatni ijtimoiy omil sifatida tadqiq qilish rivoj topgandi. Shu asnoda ko'proq sotsiologiya sohasidan kelib chiqqan konstruktivizm xalqaro munosabatlar nazariyasi shakllanadi. Konstruktivizm asosini ijtimoiy omillar tashkil qilar va ular masala va muammolarning konstruktiv yechimiga taqalar ekan, ushbu qarashlar bugungi kunda qaror qabul qiluvchi elita hamda tadqiqotchilar o'rtasida dolzarb hisoblanadi.

AQSh tashqi siyosatida ham ushbu qarashlar ahamiyatlidir. AQSh tashqi siyosati rivojlanish evolyusiyasi dinamik bo'lib, u dastlab izolyatsionistik tus olib, keyinchalik internatsionalizmga asoslanadi. Bundan tashqari, Ikkinchi jahon urushidan so'ng tashqi siyosatda avvaliga realizm ustuvor bo'lgan bo'lsa, keyinchalik liberalizm, neorealizm va neoliberalizm dolzarblashadi. Jahon tartiboti va undagi jarayonlarga ham davlatning munosabati davr va vaziyatdan kelib chiqib o'zgarib turishi ro'y beradi. Zamonaviy davrda D.Tramp administratsiyasi tomonidan amalga oshirilgan islohotlar va Prezident J.Baydenning bugungi kundagi tashqi siyosati AQSHda ushbu soha konstruktivistligidan dalolat beradi.

Yevropa, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo mintaqalari kabi Janubiy Osiyo mintaqasida ham uning tashqi siyosati konstruktivist ruhda shakllanib rivojlangan. XX va XXI-aslarda mazkur mintaqaga bo'lgan yondashuv buning isbotidir. Agar Sovuq urushi vaqti mintaqa AQSh uchun kommunizmning "tiyib turish" siyosatining bir qismi bo'lgan bo'lsa, 2001-yil 11-sentabr voqealaridan so'ng u global terrorizmga qarshi kurashish platformasiga aylandi. Ohirgi o'n yillikda Xitoy omilining mazkur mintaqada kuchayishi, Janubiy Osiyoni AQSh uchun strategik mintaqalar qatoriga qo'shdi. Bundan tashqari, mintaqa AQShning ommaviy qirg'in qurollarining tarqalib ketmasligi siyosatining bir qismi bo'lib kelmoqda.

AQSh tashqi siyosatini Janubiy Osiyo mintaqasida tarixiy tahlil qilsak, ushbu hududdagi ikki asosiy davlatga nisbatan, ya'ni Hindiston va Pokistonga Qo'shma Shtatlarning yondashuvi turlicha bo'lgan. Tashqi siyosiy fokus ustuvorligi ma'lum bir davrda Hindistonga, ma'lum bir vaqt Pokistonga berilgan. Ayrim davrlarda, xususan, 90-yillarda ikki davlatga ham bir darajada ustuvorlik berilgan. Bugungi kunda Qo'shma Shtatlar Pokiston va Hindiston bilan alohida-alohida siyosat olib bormoqda. AQShning siyosati ushbu mintaqada yahlit emas. Pokiston bilan aloqalarda urg'u asosan xavfsizlikka taqalsa, Hindiston bilan aloqalar asosan iqtisodiydir. Mintaqa davlatlariga shu tarzda yondashish tarixiy rakursda AQShning munosabati konstruktivist ekanligi, ya'ni davr va vaziyatdan kelib chiqib o'zgaruvchan rivoj topganligini anglatadi.



Janubiy Osiyo mintaqasi G'arb olami uchun kolonizatsiya davrida "Hind subkontinenti" amatasi bilan atalgan. Boburiylar saltanati uzra mustamlakachilik siyosatini o'rnatgan Buyuk Britaniya (1858-1947yy.) hozirgi Hindiston va Pokiston hududlarini nazorat qilgandi. Ikkinchi jahon urushi vaqti Britaniya Hindistoni antigitlerchi koalitsiya tarkibida ishtirok etadi, biroq urush nihoyasiga ko'ra Buyuk Britaniya o'z qudratini yo'qotadi. Bu 1947-yilda mustaqil Hindiston va Pokiston davlatlari vujudga kelishiga zamin yaratadi. Din negizida shakllangan ushbu ikki davlat o'rtasida mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ziddiyat boshlanadi. Natijada, 1947-1948yy, 1965y. va 1999y. ular o'rtasida to'qnashuvlar bo'lib o'tadi. Bu o'z-o'zidan ushbu mintaqaga bo'lgan yondashuvda Hindiston-Pokiston, islom va hind sivilizatsiyalari qarama-qarshiligini inobatga olinishini taqozo qilardi. O'ziga xoslik (identities), qadriyatlar, din va mafkuralar asosida vujudga kelgan Hindiston-Pokiston munosabatlari siyosiy konstruktivizmning yaqqol misolidir. Chunki davlatlar o'rtasida aloqalarga g'oyalar ta'sir etar ekan, ular konstruktivist shakllanganligini anglatadi.

Bundan tashqari, ushbu ikki davlat va butun mintaqaga bo'lgan munosabatga diniy konfessiyalar omili inobatga olinar ekan, ilmiy tadqiqotlarda mafkuraviy yondashuvni o'z ichiga olgan konstruktivizm siyosiy nazariyasi ustuvor bo'ladi. Chunki 1947-yildan bugungi kunga qadar aksariyat davlatlarning Janubiy Osiyo mintaqasiga bo'lgan tashqi siyosiy yondashuvi yuqoridagi mafkuraviy omillarni inobatga olgan holda rivojlangan. Misol, Hindiston bilan hamkorkorlik qilayotgan davlat, Pokiston bilan unchalik ham yaqin bo'la olmaydi; Pokiston bilan ittifoq tuzgan davlat Hindistonning ishonchidan tashqarida bo'ladi. Bundan shu kelib chiqadiki, mintaqaga yondashgan davlatlarda o'ziga xos geosiyosiy tanlov vujudga keladi: Hindiston yoki Pokiston? Ushbu ikki davlatning ishonchida bo'lish, ularning tashqi siyosiy idroki (perceptions)ga mos siyosat olib borish mintaqa masalalarda konstruktivizm ustuvor bo'lishini anglatadi.

Bugungi kunda ushbu mintaqaga ta'rif berganda, 1985-yilda tuzilgan iqtisodiy-siyosiy ahamiyatga ega Janubiy Osiyo mintaqaviy hamkorlik assotsiatsiyasi (SAARK / SAARC – South Asian Association for Regional Cooperation) tashkilotiga a'zo davlatlar tushiniladi – bular Hindiston, Pokiston, Afg'oniston, Bangladesh, Nepal, Butan, Shri Lanka va Maldiv. Jahonning 4,2 % Yalpi ichki mahsuloti hamda 25% aholisini tashkil etuvchi ushbu ulkan mintaqada qadimdan sivilizatsiyalar kesishkan hudud, Buyuk Ipak Yo'lining chorrahasi, zamonaviy davrda "Makon va Yo'l" Tashabbusi, Xalqaro Shimol-Janub Transport Yo'lagi (INSTC / The International North-South Transport Corridor), Yangi Buyuk Ipak Yo'li, Termez-Mozari-Sharif-Kabul-Peshovar temir yo'li, TAPI, CASA-1000 kabi yirik lohilarning fundamental qismi bo'lib kelmoqda. Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, Xitoy, Janubiy-Sharqiy Osiyo va Hind okeani o'rtasida joylashgan ushbu ulkan mintaqaning geosiyosiy ahamiyati zamonaviy xalqaro munosabatlarda vaznlidir. Xitoy, Hindiston, Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlarining jahon okeaniga chiqish masalasi Janubiy Osiyo mintaqasiga bog'liq ekan, ushbu mintaqaning ahamiyati yo'qolmaydi.

Amerika Qo'shma Shtatlarining Janubiy Osiyodagi tashqi siyosati genezisiga to'xtalsak, uning shakllanish va rivojlanish ssenariysi dinamik ekanligiga amin bo'lamiz. Zamonaviy AQSh tashqi siyosati mazkur mintaqadagi Ikkinchi jahon urushi yakuni va mintaqadagi ikki asosiy davlat, Hindiston va Pokistonning mustaqillikka erishishi bilan boshlanadi. AQShning Janubiy Osiyo mintaqasidagi zamonaviy tashqi siyosatini quyidagi yetti davrga bo'lib taqdim qilish mumkin:

- 1947-1965-yillar;
- 1965-1979-yillar;
- 1979-1989-yillar;
- 1989-1998-yillar;
- 1998-2001-yillar;
- 2001-2021-yillar;
- 2021y.-h.k.

1947-1965-yillar. Ushbu davrda AQSh tashqi siyosati Janubiy Osiyo mintaqasida asosan xalqaro miqyosda rivoj topayotgan kommunizmni "tiyib turish"ga taqaladi. Mintaqa AQSh uchun iqtisodiy emas, balki ko'proq strategik ahamiyat kasb etardi. 1946-yildagi Buyuk Britaniya Bosh vaziri Uinston Cherrillning Fulton shahridagi kommunizmga qarshi qaratilgan nutqi, AQShning Sovet davlatidagi elchi maslahatchisi Jorj Kennanning "Uzun telegramma"si, 1947-yilgi Trumen doktrinasi kabi siyosiy voqeliklar AQSh tomonidan butun dunyo bo'ylab kommunizmning tarqalib ketmasligi yo'lida tashqi



siyosiy harakatlar amalga oshirilishini taqozo qilgandi. Bu natijada Sovuq urushi boshlanishi, Marshall rejasi amalga oshishi hamda NATO kabi tashkilotlar tuzilishiga olib kelgandi. G'arb-Sharq qarama-qarshiligi Janubiy Osiyoni ham chetlab o'tmaydi. Trumen, Eyzenxauer va Kennedi administratsiyalari ushbu mintaqa kommunistik blok tomon o'tib ketishiga qarshi edi. Bundan tashqari, Yaqin Sharq neft manbalarining asosiy yo'lagi hisoblangan Fors ko'rfazi uzra nazoratni saqlash AQSh uchun ustuvor hisoblangan.

Ushbu davrda iqtisodiy jihatdan katta salohiyatga ega va oyoqqa turayotgan Hindistonga Qo'shma Shtatlar katta qiziqish bildiradi. Binobarin, Hindiston-Pokiston geosiyosiy tanlovida AQShning tanlovi Pokistonga tushadi. AQSh nazorati ostidagi Yaqin Sharq mintaqasiga tutashgan Pokiston kommunizm bilan kurashda ishonchli hamkor hisoblanardi. Bu Yaqin Sharq va Janubiy Osiyo bo'ylab antikommunistik devor qurishga imkon yaratardi. Bundan tashqari, ateizmni targ'ib qilayotgan SSSRga qarshi turishda din negizida birlashgan Pokiston davlati AQShga qulay hamkor hisoblanardi. Masalalar yechimida din omili inobatga olinishi o'sha davrdagi istebishment kommunizmning mintaqaviy "tiyib turish" siyosatiga konstruktivist yondashganligidan dalolat berardi.

Bu davrda AQSh-Hindiston aloqalari passiv darajada edi. Pokiston bilan ittifoq tuzgan AQSh, o'zining ittifoqchisiga qarshi bo'lgan davlat bilan yaqin bo'la olmas edi (konstruktivizmning jihati). Bundan tashqari, Hindiston ko'proq Sovet davlati tomon yon bosayotgandi. Natijada, Janubiy Osiyodagi Hindiston-Pokiston qarama-qarshiligida ham Sovuq urushning ayrim jihatlari namoyon bo'ladi. Ammo biroz vaqt o'tgach, Hindiston G'arb va Sharq bloklaridan uzoqlashgan holda mustaqil va neytral siyosat olib bora boshlaydi. Hindiston, Misr va Yugoslaviya davlatlari 50-yillarning o'rtalari va 60-yillarda vujudga kelgan Qo'shilmaslik harakatiga yetakchilik qila boshlaydi. Bu davrda, o'z navbatida, Pokiston Qo'shma shtatlarning Janubiy Osiyodagi eng yaqin ittifoqchisiga aylanadi. U AQSh tomonidan SSSRni tiyib turishga qaratilgan SENTO va SEATO harbiy bloklarining asosiy a'zo-davlatlari qatoridan o'rin egallaydi.

Shunday qilib, ushbu davrda AQSh o'z tashqi siyosatida Janubiy Osiyo mintaqasida ustuvorlikni Pokistonga taqdim etadi. Hindiston avvaliga SSSR bilan yaqinlashib, keyinchalik Qo'shilmaslik harakatining lideriga aylanadi.

1965-1979-yillar. Ushbu davrda AQShning Janubiy Osiyoda tashqi siyosatida passivlik namoyon bo'ladi. 1965-1973yy. Vetnamda kechgan urush AQShning fokusi Janubiy-Sharqiy Osiyoga kuchishini taqozo qiladi. Natijada, AQSh Janubiy Osiyo va Pokistondan uzoqlashadi. AQSh 1965-yil hamda 1971-yilda Hindiston va Pokiston o'rtasidagi urushlarga arashlamaydi. Ikki marta ham AQSh o'zining ittifoqchisiga yordamga kelmaydi. Mag'lub bo'lgan va Bangladesh hududini yo'qotgan Pokiston, AQSh siyosatidan norozi ekanligini namoyish qilish uchun 1971-yili SEATO harbiy blokidan chiqib ketadi. Hissiyotga berilib, norozilikni namoyish etish va kuchli ittifoqchidan voz kechish realizm nuqtai nazaridan irratsionalizmdir. Realizmga ko'ra, davlatlar xalqaro munosabatlarda ratsional harakatlanadilar, binobarin, konstruktivizm davlatlarni g'oya va hissiyotlar harakatlantirishini e'tirof etadi. Pokistonning ushbu keysdagi harakati bunga isbot bo'la oladi.

Bundan tashqari, 1969-1979 yy. AQSH va SSSR o'rtasida davom etgan iliqlik munosabatlari ("detant" davri) hamda 1971 yildan AQSH va Xitoy Xalq Respublikasining aloqalari o'rnatilishi va taraqqiy topishi, istebishmentning e'tiborini boshqa vektorlarga qaratgandi.

1979-1989-yillar. Ushbu davr Sovet davlati va Afg'oniston o'rtasida kechgan urush bilan bog'liq. Sovet davlatining Janubiy Osiyo mintaqasi, xususan, Afg'onistonga kirishi AQShning diqqatini ushbu mintaqaga yana tortadi. O'n besh yil davomida namoyon bo'lgan passivlik yo'qoladi. AQSh ushbu mintaqada yana faollasha boshlaydi va bu uning tashqi siyosatida keskin dinamikani hosil qiladi. Ushbu mintaqadagi muhim bo'lmagan tashqi manfaatlar yana ustuvor bo'la boshlaydi. Afg'onistonda SSSRga qarshi turish maqsadida Pokiston AQShning asosiy ittifoqchisiga aylanadi. AQSh-Pokiston munosabatlari yana rivojlana boshlaydi. Manfaatlarning muqim emasligi va ular davr hamda vaziyatdan kelib chiqib o'zgaruvchan bo'lishi konstruktivizmning ko'rinishidir. AQShning ushbu davrdagi Janubiy Osiyodagi o'zgaruvchan tashqi siyosati bunga misol bo'la oladi.

1989-1998-yillar. Ushbu davr Sovet davlati parchalanishi va Sovuq urushi o'z nihoyasiga yetishi bilan ajralib turadi. Bu davrda AQSh global gegemoniyaga intilib, o'z pozitsiyalarini barcha mintaqalarda mustahkamlab boshlagandi. Janubiy Osiyo mintaqasi ham AQSh nazaridan chetda



qolmaydi. Ushbu davrda AQSh tashqi siyosatida Janubiy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy dilemma, ya'ni Hindiston yoki Pokiston tanlovi o'z ahamiyatini yo'qotadi. AQSh Hindiston va Pokiston bilan alohida-alohida barobar diplomatiya olib boradi. AQShni Hindistonning rivoj topayotgan iqtisodi qiziqтира, Pokiston hanuz strategik jihatdan muhim edi. Bu davrda AQSh tashqi siyosati Janubiy Osiyoda o'z pozitsiyalari uchun tashqi tahdidlardan ko'ra ichki tahdidlar ko'payganligini sezadi. Nega deganda, AQSh pozitsiyalariga asosiy raqib bo'lgan Sovet davlati Afg'onistonda mag'lub bo'lib, parchalanib ketgandi. Endi AQShni Janubiy Osiyodagi ichki muhit ko'proq tashvishga solardi. Ushbu mintaqa masalalarini chuqurroq tahlil qilish maqsadida Davlat departamentida Janubiy Osiyo Byurosi ta'sis etiladi.

1998-2001-yillar. AQShning Janubiy Osiyoga bo'lgan iliq munosabatlari 1998-yili barham topadi. Buning sababi 11-may sanasida Hindiston tomonidan yadro qurolining sinovi tashkil etilganligi va bunga javoban Pokiston tomonidan 28-may sanasida beshta yadro quroli sinovi bo'lib o'tganligidir. Mintaqaning bir-biriga qarshi bo'lgan ikki davlatida yadro quroli paydo bo'lishi mintaqadagi xavfsizlik masalalarini yanada oshirgandi. O'zini yakka superderjava deb qabul qilgan Qo'shma Shtatlar uchun yadro qurolining tarqalishi ma'qul emasdi. Qolaversa, ayyorona yo'llar bilan mahoratli olim Abdul Qodir Xon tomonidan yaratilgan Pokiston yadro quroli AQShning xavotirini yanada oshirgandi. Pokiston AQShning dushmanlari hisoblangan Shimoliy Koreya hamda Eron uchun namunali misol edi. Bundan tashqari, istebishmentni kelajakda yadro quroli terroristik qo'llarga tushib qolishi xavotirlantirardi. Buning natijasida, AQSh mintaqaga sanksiya qo'yadi.

2001-2021-yillar. 2001-yil 11-sentabr voqealari AQShning e'tiborini yana Janubiy Osiyoga qaratadi. Global terrorizmga qarshi kurashish maqsadida AQSh o'z kuchlarini Afg'onistonga olib kiradi. Bunda Pokiston o'ziga xos forpost vazifasini bajarib beradi. Natijada, AQSh tashqi siyosatining Janubiy Osiyo vektorida Pokistonning ahamiyati yana ustuvorga aylanadi. Afg'oniston va Pokiston davlatlari chegadosh ekanligi, bundan tashqari, o'sha chegara hududi (Af-Pak) global terrorizm markaziga aylanganligi Pokistonning ahamiyatini yanada oshirardi. Af-Pak hududi Al-Qoida va boshqa terroistik kuchlarning markaziga aylanganligi AQSh tashqi siyosatida yo'l qo'yilgan katta xatolik edi. 1991-yildan buyon ahamiyati tushgan va e'tibor qaratilmagan mintaqa 10 yil o'tib AQShning eng yirik muammosiga aylangadi. Af-Pak hududining ahamiyati oshishi Janubiy Osiyoda usturvorlik yana Pokistonga taqdim etilishiga olib keladi. Bu neytral aloqalardan iliqlashayotgan AQSh-Hindiston munosabatlarida yana probel hosil bo'lishiga olib keladi. Boshqacha qilib aytganda, mintaqadagi geosiyosiy tanlov yana dolzarblashadi va AQSh bunda Pokistonni tanlaydi.

Pokiston AQSh tashqi siyosatida 2021-yil 31-avgustga qadar dolzarb bo'lib turadi. Afg'onistonda 20 yil mobaynida kechgan AQSh harbiy operatsiyasi buning asosiy sababi edi. Ammo 2021-yil 31-avgustdan so'ng AQSh-Pokiston munosabatlarida katta tushish hosil bo'ladi. Ushbu davlat AQSh uchun terrorizm, yadro qurolini tarqalishi xavfi va boshqa muammolar markazi bo'lib gavdalana boshlanadi.

Prezident J.Bush-kichik administratsiyasi AQSh tashqi siyosatida neokonservatizmni olg'a surib, Yaqin Sharq va Afg'onistonda kuch bilan demokratiyani singdirish siyosatini olib borgandi. B.Obama davrida fokus boshqa mintaqalarga ham qaratila boshlanadi. Bu Janubiy Osiyoda aloqalar bir vaqtning o'zida ham Hindiston, ham Pokiston bilan olib borilishiga yo'l ochadi. Hindiston bilan iqtisodiy sohada hamkorlik olib borilsa, Pokiston xavfsizlik sohasida muhim edi. Boshqacha qilib aytganda, o'zgaruvchan manfaatlar Hindistonning ahamiyati yana AQSh tashqi siyosatida kuchayishiga olib keladi. Bundan tashqari, AQSh tomonidan Hindiston yadro dasturiga qarshilik qilish siyosati kun tartibidan olib tashlanadi. Buning o'z dolzarbligini yo'qotganligi tashqi siyosatda muqim manfaatlar bo'lmasligining isboti edi.

AQSh tashqi siyosatida Janubiy Osiyo mintaqasi hamda Hindiston ahamiyati oshishiga yana bir omil, ya'ni Xitoy kuchayishi sababchi bo'ladi. Kuchi ortib borayotgan Xitoyda AQSh Hind-Tinch okeani, Janubiy-Sharqiy Osiyo hamda Janubiy Osiyo mintaqalarida yangi raqobatchini ko'ra boshlaydi. Xitoyga kontrbalans yaratish maqsadida Hindiston ittifoqchi sifatida tanlanadi. Iqtisodiy, harbiy, siyosiy jihatdan kuchli Hindistonning Xitoy bilan uzoq yillik o'zaro adovati mavjud edi, ular Janubiy Osiyo va Hind okeanida raqobat qilardilar. Shuning uchun ham Hindiston AQSh uchun Xitoyni "tiyib turish"da ideal hamkor hisoblanadi. Xitoyning kuchayishi omili nafaqat AQSh, balki Hind-Tinch okeani hamda Janubiy Osiyodagi aksariyat davlatlarni xavotirga solmoqda. Shu maqsadda 2007-yili Yaponiya Bosh



vaziri Sindzo Abe tomonidan Xavfsizlik bo'yicha To'rt tomon dialogi (QUAD / Quadrilateral Security Dialogue) platformasi olg'a suriladi. Unga AQSh, Hindiston, Yaponiya va Avstraliya a'zo bo'lib kiradilar. 2017-yili ushbu platforma qayta tiklanadi. Shu tariqa AQSh va Hindiston yagona xavfsizlik platformasida ittifoqchilarga aylanadilar.

Hokimiyat tepasiga kelgan D.Tramp AQSh tashqi siyosiy ustuvorliklarini qayta ko'rib chiqdi va e'tiborni Xitoyga qaratdi. Shu asnoda 2017-yili "Erkin va ochiq Hind-Tinch okeani strategiyasi" qabul qilindi va AQShning bosh diqqat markazi ushbu mintaqaga yo'naldi. Mazkur Strategiya qabul qilinishi bilan G'arb olamida "Osiyo-Tinch okeani mintaqasi" atamasi "Hind-Tinch okeani mintaqasi"ga o'zgartirildi. Yangi atamaga "Hind" so'zining qo'shilishi AQSh tomonidan Hindiston tomon diplomatik qadam edi. Ushbu Strategiyada Hindiston AQShning "Asosiy Mudofaa Hamkori" sifatida e'tirof etildi. Binobarin, ushbu atama 2016-yilda B.Obama davrida ilk bor ishlatilgandi.

AQSH va Hindiston aloqalarining negizini yana bir konstruktivist aspekt, chunonchi, o'xshash e'tiqodlar tashkil etadi. Demokratiya, liberalizm, inson huquqlari va tengli kabi tushunchalar ikkala davlatda ham ulug'lanadi. Umumiy bo'lgan tushunchalar qaror qabul qiluvchi elita hamda xalq idrokiga bevosita ta'sir etadi. Bu yakunda ijobiy aloqalar rivoj topishiga olib keladi. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, o'z tarixida bir nechta harbiy inqiloblarni boshdan o'tkazgan Pokistonga qaraganda Hindiston demokratiya indeksi bo'yicha yuqori davlat hisoblanadi. Bundan tashqari, mutaxassislarning fikriga ko'ra, Pokiston harbiylarining munosabati AQSHga qarshidir. Pokiston tomonidan AQSH "yoqtirilmaligi" va shu paytning o'zida AQSh tomonidan Pokistonga terrorizmning markazlaridan biri sifatida yondashilishi, ularning aloqalariga salbiy ta'sir etadi. Shuning uchun ham amerikaliklar demokratik g'oyalarni olg'a surgan Hindistonda ko'proq ishonchli hamkorni ko'rishadi.

Zamonaviy davrda AQSh tomonidan Hindistonga nisbatan quyidagi vazifalar belgilangan:

□ Hindistonning xavfsizlik borasidagi salohiyatini oshirish va uni AQShning Asosiy Mudofaa Hamkoriga aylantirish. Uning qurolli kuchlarini AQSH va uning ittifoqchilari bilan birgalikda harakatlana olishiga yo'l ochish;

□ Hindistonni Asosiy Mudofaa Hamkor sifatida eng oldi texnologiyalar bilan ta'minlash. Uning mintaqadagi liderligini oshirish hamda Hind okeanidan naridagi jarayonlarga jalb etish;

- Hindistonning jahondagi qudratli davlat bo'lishga qaratilgan intilishlarini qo'llab-quvvatlash;
- Hind okeanida AQSH va Hindistonning umumiy tartib-qoidalarini joriy etish;
- Axborot, dengiz xavfsizligi va razvedka sohalarida hamkorlikni kengaytirish;
- Hindistonning Janubiy Osiyo davlatlari bilan hamkorligini oshirish;
- Maldiv, Shri-Lanka va Bangladesh kabi davlatlar bilan AQShning aloqalarini rivojlantirish.

Shu tariqa 20 yil davom etgan davrda AQSh tashqi siyosatining Janubiy Osiyo vektorida evolyusion dinamika hosil bo'ladi. Avvaliga Pokiston ahamiyati keskin oshib (2001y.), keyinchalik keskin tushadi (2021y.). Hindiston bilan aloqalarda probel hosil bo'lib, keyin 2017-yildan munosabatlar oliy darajaga ko'tariladi. Davlatlar o'rtasidagi aloqalarda shu kabi tushish va ko'tarilishlar hosil bo'lishi konstruktivizmga xosdir.

2021y.-h.k. AQSh qurolli kuchlari Afg'onistondan chiqib ketishi xalqaro munosabatlar bo'yicha mutaxassislar tomonidan AQSh tashqi siyosatida bir davr tugab, yangisi boshlanganligi e'tirof etiladi. Bu davrda Qo'shma Shtatlarning manfaatlari Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqalarida keskin pasayadi. Bugungi kunda Pokiston omili AQSh tashqi siyosatida sezilarli darajada pasaygan. Afg'onistondagi harbiy operatsiyadan so'ng Pokiston Qo'shma Shtatlar uchun o'z dolzarbligini yo'qotgan. Bundan tashqari, Pokistonning Xitoy tomon diplomatiyasi uni AQShdan uzoqlashishiga olib kelyapti. AQSh tashqi siyosatida Hindiston ahamiyatini inobatga oladigan bo'lsak, u 2022-yilgi Milliy Xavfsizlik Strategiyasida "Asosiy Mudofaa Hamkori" sifatida e'tirof etilyapti. Zamonaviy davrda AQShning Janubiy Osiyodagi tashqi siyosati Hindistonga taqalmoqda. Boshqacha qilib aytganda, bugungi kunda ushbu mintaqa isteblishment uchun asosan Hindistonni anglatadi. Binobarin, mintaqaning o'zi Hind-Tinch okeani mintaqasi ichida o'rganiladi, ya'ni Janubiy Osiyo ulkan Hind-Tinch okeani mintaqasining tarkibiy qismiga aylangan. Bu yana bir bor jahon siyosatida sun'iy va konstruktivist ravishda mintaqalarni joriy etish va ularni o'zgartirish mumkinligining isbotidir.

Xulosa qilib, AQSh tashqi siyosatining Janubiy Osiyo mintaqasidagi genezisini tahlil qilar ekanmiz, u ko'tarilish va tushishlar, bog'liqlik va uzoqlashishdan iborat bo'lganligini tushunamiz. Sovuq urush





davrida mintaqaga asosan kommunizmni “tiyib turish” siyosatining bir qismi sifatida yondashilib, Pokiston asosiy hamkor davlat bo‘lgan bo‘lsa, zamonaviy davrda barqaror iqtisod va demokratik tuzumga ega Hindiston, AQSh uchun qulay hamkorga aylanmoqda. Bundan tashqari, Xitoy kuchayishi omili AQShni Hindiston tomon yaqinlashtirmoqda. 2007-yilda tuzilgan QUAD 2017-yili qayta tiklanadi. 2017-yili Hindiston tomon diplomatik qadam tashlanib, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi atamasi Hind-Tinch okeaniga o‘zgartiriladi. O‘sha yili AQSHning “Erkin va ochiq Hind-Tinch okeani Strategiyasi” qabul qilinadi. Unda Hindiston “Asosiy Mudofaa Hamkori” sifatida e’tirof etilgandi. 2021-yilda AQSH Afg‘onistondan chiqib ketganligi mamlakat tarixida yangi sahifani ochadi. Bugungi kunda Pokistonning ahamiyati pasaygan bo‘lsa, Hindiston Janubiy Osiyodagi AQSHning asosiy ittifoqchisiga aylangan. AQSH-Pokiston aloqalarida terrorizm va ekstremizmga qarshi kurash hamda yadro qurolini tarqab ketmasligi ustuvor bo‘lsa, Hindiston bilan iqtisod va mintaqa xavfsizligi sohalarida aloqalar rivojlanmoqda.

Tarixiy genezis shuni ayon qiladiki, AQShning Janubiy Osiyo mintaqasida muqim va doimiy manfaatlari yo‘q. Ular o‘zgaruvchan va moslashuvchandir. Ustuvorlik goh Pokiston, goh Hindistonga taqdim etilgan. Mintaqa yoki dolzarb, yoki ahamiyatsiz bo‘lgan. Muxtasar qilib aytganda, AQShning ushbu mintaqadagi tashqi siyosatini ochib berishda, konstruktivizm siyosiy maktabi nazariy jihatdan to‘g‘ri deb ta’kidlasak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki, aynan, konstruktivizm davlatlarning xalqaro munosabatlarda shu tariqa harakatlanishini e’tirof etadi.

#### Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dunne T., Kurki M., Smith S. (2013) *International Relations Theories*. Oxford University Press. – 223-236p.
2. Paul T. V. (2005) *The India-Pakistan conflict: An enduring rivalry*. Cambridge: Cambridge University Press. – 6-8p.
3. Fair C. (2016) *Pakistan’s strategic culture: Implications for how Pakistan perceives and counters threats*. Washington: The National Bureau of Asian Research. – 3p.
4. Irum Shaheen (2013) *South Asian Association for Regional Cooperation (SAARC): Its Role, Hurdles and Prospects*. IOSR Journal of Humanities and Social Science (IOSR-JHSS) Volume 15, Issue 6. – 1p. [file:///C:/Users/HP/Downloads/South\\_Asian\\_Association\\_for\\_Regional\\_Cooperation\\_S.pdf](file:///C:/Users/HP/Downloads/South_Asian_Association_for_Regional_Cooperation_S.pdf)
5. GDP – South Asia. The World Bank. <https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.MKTP.CD?end=2021&locations=8S&start=1960&view=chart>
6. Nawaz M., Shaheen M., Saif A. (2020) *The US Policy Toward South Asia: An Historical Assessment*. University of Sargodha. *Journal of Historical Studies*. – 268p. [https://www.researchgate.net/publication/342708593\\_The\\_US\\_Policy\\_Toward\\_South\\_Asia\\_An\\_Historical\\_Assessment](https://www.researchgate.net/publication/342708593_The_US_Policy_Toward_South_Asia_An_Historical_Assessment)
7. *The Cold War (1945–1989)*. CVCE.EU by UNILU. 2016. [https://www.cvce.eu/content/publication/2011/11/21/6dfe06ed-4790-48a4-8968-855e90593185/publishable\\_en.pdf](https://www.cvce.eu/content/publication/2011/11/21/6dfe06ed-4790-48a4-8968-855e90593185/publishable_en.pdf)
8. Panagariya A. (2008) *India: The emerging giant*. Oxford: Oxford University press. – xiii p.
9. Mahmud Ali S. (1999) *Cold war in the high Himalayas: The USA, China and South Asia in the 1950s*. London & New York: Routledge. – 4p.
10. Moonis Ahmar (2021) *Changing Dynamics of Pak-US Relations and the Challenge of Soft Power*. LSE IDEAS | JINNAH PAPERS. – 15-16p. [https://eprints.lse.ac.uk/114516/1/Ahmar\\_changing\\_dynamics\\_of\\_pakistan\\_us\\_published.pdf](https://eprints.lse.ac.uk/114516/1/Ahmar_changing_dynamics_of_pakistan_us_published.pdf)
11. Munawar Hussain (2016) *Pak-US Relations: An Historical Overview*. *Pakistan Journal of History and Culture*, Vol. XXXVII, No. 2. – 69-71p. [http://www.nihcr.edu.pk/Latest\\_English\\_Journal/Jul-Dec%202016%20No.2/5.%20PakUS%20Relations%20a%20%20Historical%20Review,%20Munawar%20Hussain%20footnotes%20corrected.pdf](http://www.nihcr.edu.pk/Latest_English_Journal/Jul-Dec%202016%20No.2/5.%20PakUS%20Relations%20a%20%20Historical%20Review,%20Munawar%20Hussain%20footnotes%20corrected.pdf)
12. *U.S.-China Relations*. Council on foreign relations. <https://www.cfr.org/timeline/us-china-relations>
13. Lubna Sunawar, Tatiana Coutto (2015) *U.S. Pakistan Relations during the Cold War*. *The Journal of International Relations, Peace Studies, and Development*: Vol. 1. – 1p. <https://scholarworks.arcadia.edu/cgi/viewcontent.cgi?article=1006&context=agsjournal>



14. Gavrilova V.A. (2013) US Policy in South Asia since the end of the Cold War. Bulletin of Tomsk State University. – 80p. <https://cyberleninka.ru/article/n/politika-ssha-v-yuzhnoy-azii-posle-okonchaniya-holodnoy-voyny/viewer>
15. Zia Mian (2014) Nuclear Programs in India and Pakistan. Princeton, New Jersey: Princeton University. – 165-167p. <https://sgs.princeton.edu/sites/default/files/2020-01/mian-2014.pdf>
16. Fair C. (2014) Fighting to the end: The Pakistan Army's way of war. Oxford: Oxford University press. – 210-2013p.
17. Asghar Khan (2022) Mainstreaming the Tribal Areas (ex-FATA) of Pakistan Bordering Afghanistan. Singapore: Palgrave Macmillan. – 3-6p.
18. Riaz Khokhar (2018) The US-India Strategic Partnership: Pakistan's Foreign Policy Response. Center for International Strategic Studies (CISS), Islamabad. – 3p. [https://www.researchgate.net/publication/326331130\\_The\\_US-India\\_Strategic\\_Partnership\\_Pakistan%27s\\_Foreign\\_Policy\\_Response](https://www.researchgate.net/publication/326331130_The_US-India_Strategic_Partnership_Pakistan%27s_Foreign_Policy_Response)
19. Grare F. (2017) India turns East: International engagement and US-China rivalry. London: Hurst & Co. – 59-61p.
20. Istomin I. (2019) US policy in the Indo-Pacific region. RIAC, No. 49. Moscow. – 14p.
21. Dwivedi Sh., Ahanger G. India in The United States South Asia Policy. Shodhasamhita, Vol. No IX. 2022. – 62-65pp.
22. U.S. Strategic Framework for the Indo-Pacific. trumpwhitehouse.archives.gov. 2017. <https://trumpwhitehouse.archives.gov/wp-content/uploads/2021/01/IPS-Final-Declass.pdf>